



AHMAD A'ZAMNING OBRAZ YARATISHDAGI MAHORATI (“ODAMNING OLASI”, “ALMISOQDAN QOLGAN KARIM”, “NOINSOF MUSO” HIKOYALARI ASOSIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18616274>

Mehriniso Shomurodova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti Filologiya fakulteti II kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yetuk vakili Ahmad A'zam ijodida obraz yaratish masalasi tahlil qilinadi. Adibning “Odamning olasi”, “Almisogdan qolgan Karim”, “Noinsof Muso” hikoyalari asosida qahramon xarakterining shakllanishi, ularning ruhiy kechinmalari hamda ijtimoiy muhit bilan munosabati yoritib beriladi. Yozuvchining psixologik tahlilga asoslangan badiiy uslubi, hayotiy detallar orqali obraz xarakterini ochish mahorati ilmiy-ommabop tarzda izohlanadi. Tadqiqot jarayonida Ahmad A'zam hikoyalaridagi qahramonlar nafaqat individual shaxs sifatida, balki jamiyatdagi muayyan axloqiy va ma'naviy holatlarning badiiy timsoli sifatida baholanadi. Tadqiqot adib ijodini o'rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Ahmad A'zam, zamonaviy o'zbek nasri, badiiy obraz, obraz yaratish mahorati, hikoya janri, psixologik tahlil, qahramon xakteri, ruhiy kechinmalar, ijtimoiy muhit, badiiy detal.

Abstract: This article analyzes the issue of character creation in the works of Ahmad A'zam, a prominent representative of modern Uzbek prose. Based on the short stories “Odamning olasi,” “Almisogdan qolgan Karim,” and “Noinsof Muso,” the study examines the formation of characters, their inner psychological experiences, and their relationship with the social environment. The writer's artistic style, grounded in psychological analysis and characterized by the use of realistic details to reveal character traits, is discussed. The characters in Ahmad A'zam's stories are evaluated not only as individual personalities but also as artistic representations of specific moral and spiritual conditions within society. The study holds significant theoretical and practical value for the analysis of the writer's creative legacy.

Keywords: Ahmad A'zam, modern Uzbek prose, literary character, character creation, short story genre, psychological analysis, character development, inner experiences, social environment, artistic detail.

KIRISH



O'zbek zamonaviy nasrida inson ruhiyati, ichki kechinmalari va jamiyat bilan munosabatini teran ochib bera olgan adiblardan biri — Ahmad A'zamdir. Uning hikoyalarida voqealar tashqi harakatdan ko'ra ichki dramatism asosida rivojlanadi. Adib uchun obraz — shunchaki qahramon emas, balki jamiyatdagi muayyan ruhiy holat, ijtimoiy muammo va insoniy ziddiyatlarning badiiy mujassamidir. Ahmad A'zam obraz yaratishda sodda hayotiy detallar, ramziy ishoralar va psixologik tahlil imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi.[2.]Mazkur maqolada yozuvchining "Odamning olasi", "Almisoqdan qolgan Karim", "Noinsof Muso" hikoyalari asosida obraz yaratishdagi badiiy uslubi, qahramon xarakterini ochish yo'llari hamda tasvir aniqligi tahlil qilinadi. Ahmad A'zam yaratgan obrazlar bugungi o'quvchini o'ylantiradi, o'zini va jamiyatni qayta baholashga undaydi. Shu jihatdan uning hikoyalari nafaqat badiiy, balki ma'naviy-ahloqiy ahamiyatga ham egadir."[4,6]Ahmad A'zam asarlarida odatdagiday boshi va oxiri bor voqealar, sabab va oqibat doirasida harakatlanadigan qahramonlar tasvirlanmaydi. Bir qarashda ijtimoiy salmoqdan mahrum mayda tafsilotlarning adoqsiz silsilasi aks etganday tuyulguvchi bu asarlarni tushunish oson kechmaydi. Chunki bu tafsilotlar zamiridagi ma'noni o'qirmanning o'zi topishi kerak bo'ladi."

Adabiyotshunoslar Qozoqboy Yo'ldosh va Muhayyo Yo'ldoshevalar

Ahmad A'zam ijodi borasida so'z yuritar ekanlar, ana shunday fikrga kelishgan.

Ular o'z fikrlarini davom ettira borib, shunday yozishgandi:

"Bunday yaratilqlar adabiyotni yangilabgina qolmay, kitobxonlar didining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan ham ahamiyatlidir. Ahmad A'zam asarlarining ichki mexanizmi qandayligini, ularning badiiyatini ta'minlagan omillar nimalardan iboratligini aniqlashga urinish o'qirmanga hayotning ko'zga tashlanavermaydigan mayda hodisalari zamiridagi ulkan ma'nolarni anglash imkonini beradi."[11,12]

A.A'zamning adabiy-tanqidiy qarashlari yangiligi, vazminligi, teranligi va, eng muhimi, eskicha mantiq qoliplarini buzib tashlayotgani bilan ajralib turar edi. U aksariyat tanqidchilarni gangitib qo'ygan eksperimentlar, shakliy izlanishlar o'zbek tafakkuridan unchalik ham uzab ketmaganini, maqsad "shaklni o'zgartirish orqali mazmunni yangilash" ekanini maqolayu tadqiqotlarida tushuntirib bera boshladi.[1] Ko'p o'tmay adabiy jamoatchilik uning dalillarini qabul qildi va an'anaviy adabiy tanqid tishini g'ijirlatib bo'lsa-da, to'nini o'ngarib kiyib, yangi avlodning adabiy tajribalari bilan hisoblashadigan bo'ldi.

Ahmad A'zam hikoyalarida obraz va ruhiy tahlil

Ahmad A'zam hikoyalarining muhim jihati shundaki, unda qahramonlar balandparvoz nutq yoki keskin dramatik vaziyatlar orqali emas, balki kundalik



hayot manzaralarida ochiladi. Yozuvchi obrazning tashqi ko'rinishidan ko'ra uning ichki olamiga chuqur kirib boradi. Shu sababli qahramonlar ko'pincha oddiy insonlar bo'lsa-da, ularning ruhiy holati o'quvchini befarq qoldirmaydi. Adib hikoyalarida insonning o'z vijdoni bilan kurashi, jamiyatdagi adolatsizlikka moslashuvi yoki unga qarshi ichki noroziligi markaziy o'rin tutadi. Bu holat obrazlarning jonli, hayotga yaqin chiqishiga xizmat qiladi.

“Odamning olasi” hikoyasida ichki ziddiyatli obrazio “Odamning olasi” hikoyasida Ahmad A'zam inson tabiatidagi ikkiyuzlamachilik va yashirin manfaatparastlikni badiiy obraz orqali ochib beradi. Hikoyadagi qahramon tashqi tomondan odobli, jamiyat talablariga mos inson bo'lib ko'rinisa-da, uning ichki dunyosida butunlay boshqa kechinmalar yashirinadi. Sherqo'zining xarakterini adib quyidagicha izohlaydi: “Mana, yoshi qirqdan ham oshibdiki, birov bilan san-manga borganini yoki, aqalli nomiga bo'lsa-da, kimsaga do'q urganini hech kim ko'rmagan-eshitmagan. Lekin Yallamaning man-man degan bo'yni yo'g'oni ham uning qarshisida qo'l qovushtirib aytadigan gapini orqa-oldiga qarab, o'ylab gapiradi: Sherqo'zi “Jonim-jonim”lab har qanday odamning jonini kekirdagidan sug'urib oladi.” [9] Bu bilan Sherqo'zining aslida qanday inson ekanligini ortiqcha bo'rttirishlarsiz, oddiy so'zlar yordamida o'quvchiga nihoyatda chiroyli tarzda tushuntirib bera olgan yozuvchi uning oiladagi holati, ayoliga qiladigan muomaasini ham xuddi

shunday sokin bir tarzda shunday beradi:” Xotini Karomatga xudo yurakdan bergan: yelkasidan ham kelmaydigan (taqdir ekan-da!), uvoqqina eri oldida qaltirab turadi. Sherqo'zi jahli chiqqan paytlarda baqirmaydi, so'kmaydi, “Xonim!” deb sizlaydi, “Karomatxon!”, deydi - uzib oladi. Uning eshikdan: “Karom, choy-poying bormi?” O'zbekning ro'zg'ori qursin, birin bitirsang, biri tayyor turadi-ya”. Deb horg'in kirib kelishiga, oh Karomat joni-jahonini berishga tayyor - Sherqo'zining erkalatgani shu-da!” [5] Yozuvchi obraz xarakterini ochishda mayda detallarga katta ahamiyat beradi. Qahramonning oddiy harakatlari, suhbat chog'idagi ikkilanishlari, ichki monologlari orqali uning asl qiyofasi asta-sekin namoyon bo'ladi. Ayniqsa, insonning boshqalarga nisbatan munosabatidagi soxtalik, manfaat kelib chiqqan joyda vijdon chetga surilishi obrazning asosiy belgisi sifatida tasvirlanadi. Bu hikoyada Ahmad A'zam “odamning olasi ichida” degan xalqona iborani badiiy konsepsiyaga aylantiradi. Natijada qahramon yakka shaxs emas, balki jamiyatda ko'p uchraydigan ma'naviy holat timsoliga aylanadi.

“Almisoqdan qolgan Karim” hikoyasida ijtimoiy xotira obrazi

“Almisoqdan qolgan Karim” hikoyasida yozuvchi o'tmish va bugun o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni Karim obrazi orqali yoritadi. Karim — eski qadriyatlar, unutilib borayotgan insoniylik mezonlarini o'zida mujassam etgan qahramondir. Uning hayotga munosabati zamon talablariga mos



kelmagandek tuyuladi, biroq aynan shu jihat uni boshqalardan ajratib turadi. Ahmad A'zam Karim obrazini yaratishda nostalgik ohangdan ko'ra tanqidiy realizmga tayanadi. Qahramonning soddaligi, ba'zan o'z manfaatini himoya qila olmasligi uni zaif ko'rsatadi, ammo ayni paytda bu xususiyatlar uning ma'naviy ustunligini ham ochib beradi. Kinoyaviy munosabat yetakchilik qiladigan asarlarda har qanday hamdardlik ham, muallif nigohining qahramon nuqtai nazari bilan birlashib ketishi ham bilib bilmaslikka olishdan iborat bo'ladi. Ya'ni kinoya hamisha ikkita nigoh, ikkita nuqtai nazar orqali ifodalanadi, biri tasdiqlayotganni ikkinchisi inkor qiladi, biri ichdan, ikkinchisi tashqaridan (yoki aksincha) kuzatadi. Ba'zan esa har ikkala nuqtai nazar ham to'laligicha mukammal emasligidan kinoyaviy effekt yuzaga keladi. Adibning "Almisoqdan qolgan Karim" hikoyasida xuddi shu jarayonni kuzatish mumkin. Hikoya syujetida garchi Karimning Mohbibbi-Mabiyiga sevgi izhor qilish voqeasi markaziy o'rin tutsa-da, syujet voqealari davomida Karim –Adham zidligi yaqqol ko'zga tashlanadi. KarimAdhamning realist, uddaburon, mug'ombirligiga havas qiladi, o'zi nega bunday emasligidan eziladi. Bu ziddiyat asnosida muallif kinoyasi Karimga qaratiladi, Adham esa bu borada deyarli muallif pozitsiyasiga yaqin turadi. Bu bir qarashda shunday. Aslida esa muallif va Adham nuqtai nazarini mutlaq bir xil deb bo'lmaydi. Karimga munosabatda Adham nuqtai nazari

muallif uchun qahramondan chetlashish vositasi bo'lsa, Adhamga munosabatda muallif undan bir pog'ona balandroqdan qaraydi –bu orqali qahramonhayotiy pozitsiyasining cheklanganligini ko'rsatadi. Karim yolg'onda yashayapti, Adham esa reallikda yashay olmayapti – har ikkalasi ham muallif uchun ma'qul holat emas.

Karim obrazi orqali yozuvchi jamiyatning insoniylikdan uzoqlashayotgan jihatlarini ko'rsatadi. Qahramonning zamonga moslasholmasligi fojia sifatida emas, balki jamiyatning o'zgarib ketgan mezonlariga nisbatan badiiy e'tiroz sifatida talqin qilinadi.

"Noinsof Muso" hikoyasida axloqiy tanazzul obrazi

"Noinsof Muso" hikoyasi Ahmad A'zam ijodida axloqiy muammolarni ochishda muhim o'rin tutadi. Muso obrazi orqali yozuvchi vijdon va manfaat o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Muso o'z harakatlarini oqlashga urinadi, o'zini aybsizdek ko'rsatadi, biroq uning har bir xatti-harakati ichki insofsizlikni fosh etib boradi. Yozuvchi Muso obrazini qoralash yo'li bilan emas, balki uni o'z qilmishlari bilan fosh qilish orqali ochadi. Qahramonning ichki monologlari, bahona izlashlari, o'zini oqlashga bo'lgan urinishlari uning ruhiy tanazzulini yanada yaqqol ko'rsatadi. Yozuvchi "Noinsof Muso" hikoyasida esa mayda o'g'rini tutish jarayonida o'zi ham maydalashib ketganini his qilgan Musoga kinoyaviy munosabatda bo'ladi. "Dunyodagi hamma katta narsa maydadan



ulgʻayadi. Lekin Muso kattadan maydalashib ketyapti”. [7]Muso –oʻzi yaxshi yigit, ammo shoshqaloq, oʻyinqaroq, laborantlik maoshi kamligidan haligacha otasidan pul soʻraydi, yetmaganiga hamkasblaridan qarz koʻtaradi. Muso hikoya syujetida nima uchun “noinsofligini” oʻzi ham bilmaydi, oʻgʻrilikda hatto oʻzidan gumon qilishni boshlaydi. “Yana kim biladi, katta ishlar oʻz yoʻliga –katta odamlar zimmasida, lekin shunaqa maydachuyda hodisalarda Musoga oʻxshagan oʻyinqaroqlarning vijdoni taskin topmay, hovliqib yurishi ham kerakdir –eshagiga yarasha tushovi-da; olamshumul ishlar qoʻlidan kelmaganidan keyin jilla qurmasa, arziyas narsalardan koʻz yumishmasin. Yana shunday maqol ham bor: “Oʻgʻrilik ignadan boshlanadi”. Toʻgʻrilik-chi?”Eʼtibor berilsa, hikoyada muallif masalani deyarli ochiq qoldiradi – kinoyaning har qanday pozitsiyani oxirigacha maʼqullamaslik xususiyati faqat qahramonlarga munosabatdagina emas, balki yozuvchining oʻz nuqtai nazariga munosabatida ham kuzatiladi: oʻgʻrilik ignadan boshlanar ekan, toʻgʻrilik ham mayda, arziyas narsalardan boshlanmaydimi?!

Bu hikoyada obraz tirik, real hayotdan olingandek taassurot qoldiradi.

Muso — faqat bitta shaxs emas, balki jamiyatda uchraydigan axloqiy muammo timsolidir.

Obraz yaratishda badiiy vositalar va tasvir aniqligi

Ahmad Aʼzam obraz yaratishda bir necha muhim badiiy usullardan foydalanadi:

Psixologik tahlil — qahramonning ichki kechinmalarini ochish asosiy vosita hisoblanadi.

Detal orqali xarakter yaratish — kichik harakat, oddiy holatlar orqali katta maʼno beriladi.

Ramziy ishoralar — ayrim obrazlar butun jamiyat holatini ifodalaydi.

Hayotiy nutq — qahramonlar tili sunʼiy emas, tabiiy va ishonarli.

Aynan shu jihatlar Ahmad Aʼzam hikoyalaridagi obrazlarni jonli va taʼsirchan qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Aʼzam obraz yaratishda zamonaviy oʻzbek nasrining yetuk vakili sifatida namoyon boʻladi. Uning hikoyalaridagi qahramonlar real hayotdan olingan, ichki ziddiyatlarga boy va chuqur maʼnaviy mazmunga ega. Yozuvchi inson ruhiyatini, jamiyatdagi axloqiy muammolarni obrazlar orqali noziklik bilan ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

- 1.Eshonqul N. Oʻziga oʻzi gapirayotgan odam / OʻzAS.-1999.-2 iyul.
- 2.Shukurova B. Yangi oʻzbek nasrida kinoyaning badiiy talqini.
- 3.Sheraliyeva M. Ahmad Aʼzam hikoyalarida kinoya. 2013.



4. Hayitova L. Ahmad A'zam asarlarida obrazlar tasviri. 2021.
5. Исажон Султон. Ҳикоялар. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 148.
6. Latif Mahmudov. Sevgi desam. – Т.: O'qituvchi, 2005. – В.17.
7. Исажон Султон. Озод. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 230
8. Абдуғафур Расулов. Акслар фалсафаси. (сўнгсўз)/ Исажон Султон.Озод. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 425.
9. Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.76
10. Ziyouz.com
11. Natlib.uz